

O'ZBEKISTON – OZARBAYJON:

MUSHTARAK ILDIZLARDAN KUCH OLGAN DO'STLIK

Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari vakillari uchun Ozarbayjonga tashkil etilgan mediatur doirasida bunga yana bir bor guvoh bo'ldik.

Tutash tomirlar

Toshkent xalqaro aeroportidan parvoz qilgan Ozarbayjon havo yo'llariga qarashi zamonaviy layner ikki yarim soatdan so'ng Boku shahrida qad rostlagan Haydar Aliyev nomidagi xalqaro aeroportga ohista qo'ndi.

"Har qanday hudud haqidagi dastlabki taassurot ostonadan boshlanadi" deganlaridek, kutib olishga chiqqan qardoshlarimizning ilk so'zi shunday bo'ldi: "O'zingizni begona diyorga keldik deb hisoblamang, Ozarbayjon – sizning ham yurtiingiz, o'zbeklar – tutash tomirlarimiz!"

Ma'lumotlarga ko'ra Bokuda rasman 2,3 million, biroq sayyohlarning kelib ketishi va vaqtincha yashayotgan xorijlik hamda mahalliy aholi bilan hisoblaganda 3 millionga yaqin aholi istiqomat qiladi. Yoz faslining issiq kunlari bo'lishiga qaramay yomg'ir shivalab turibdi. Aeroportdan shahar markazidagi mehmonxonaga kelguncha qariyb 30 – 40 daqiqa o'tdi. Shu vaqt mobaynida shaharning ancha-muncha qismini tomosha qilishga ulgurdi. Ko'chalarda avtomobillar tartib bilan harakatlanmoqda, jamoat transporti ham juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Eng muhimi, shahar ko'chalari juda ozoda.

Mehmon kutish, izzat-ikrom ko'rsatish qardoshlarimizga ham xos ezgu qadriyatlaridan. Mehmonxonaga yetib kelgach bizni kutib olgan do'stlarimiz o'z tilida salom berarkan, ko'zlari chaqnab, mamnun alfozda so'z boshladi: "Ey, qardoshim, O'zbekiston – biz uchun jonjon, qadrdon diyor. Siz va biz degan so'z yo'q, hammamiz biriz..."

Tushlikdan so'ng safarimizning rasmiy tadbir va uchrashuvlari boshlandi.

Dastlab "AZYORTAC" – Ozarbayjon davlat axborot agentligida bo'ldik.

Bu yerda boshqarma boshlig'i Elshan Shaxbalayev axborot agentligi faoliyati haqida so'zlab berdi. O'z navbatida, biz ham hamkorligimizning kelajak rejalarini, ko'zlagan maqsadlari haqida so'zladik.

Shundan so'ng "AZTV" – Ozarbayjon teleradiokompaniyasiga tashrif buyurib, bu yerda ko'rsatuvlar tayyorlash jarayoni bilan bevosita tanishishga muvaffaq bo'ldik. "AZTV" Xalqaro munosabatlar departamenti rahbari Elnar Mamedov O'zbekistonning xalqaro maydondagi o'rni mustahkamlab, nufuzi tobora oshib borayotgani katta mamnuniyat bag'ishlashini ta'kidlar ekan, uning timsolida ozarbayjon xalqining o'zbek xalqiga mehr-muhabbatini, ehtiromini ko'rdik.

"Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish bo'yicha mediatsiya doirasidagi navbatdagi uchrashuv – Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida davom etdi. Unda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ijrochi direktori o'rinbosari Natig Mammadi



ikki mamlakat o'rtasida soha bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro tajriba almashish va dezinformatsiyaga qarshi birgalikda kurashish muhimligini ta'kidlab, bu borada qilingan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan qator vazifalar haqida ma'lumot berdi...

Ichkari shahar – Boku yuragi

Boku – hayrat va mu'jizalar makoni. Betakror shahar go'zalligidan bahramand bo'lish ishtiyoqida oqshom Boku bo'ylab sayohatga chiqdik.

Poytaxt shahardagi har detal, har bir manzaraning o'ziyoq sizga bu mamlakat va uning xalqi haqida yatarlicha tasavvur beradi. Moderncha qurilgan mahobatli va ko'rkam binolaru omma uchun o'rnatilgan avangard haykallar, noyob va hayratlanarli san'at namunalari ham mamlakatning milliy qiyofasi, ruhi bo'rtib turganiga guvoh bo'lasiz.

Ayniqsa, ko'hna bu yurtning boy tarixi va qadimiy obidalar har qanday kishini maftun etadi. Noyob arxitektura yechimi asosida qad rostlagan tarixiy yodgorliklar, zamonaviy inshootlar har qanday kishida katta qiziqish uyg'otadi. Bularning barchasi o'z milliy qadriyat va an'analari e'zozlaydigan, bunyodkor, izlanuvchan xalqning beqiyos mehnatlari va mamlakatdagi tinchlik, osoyishtalik samarasidir.

Eng birinchi yo'l olgan joyimiz – Ichkari shahar.

To'g'risi, o'ziga xos bu qal'a-shaharni ko'rib, mahobatli inshootlar orasida o'zimizni go'yo mu'jizalar olamiga tushib qolganday his etdik. Bir-biriga tashab ketgan go'zal obidalar xayolni uzoq o'tmishga yetaklaydi. Ularning o'ziga xosligi bu zaminda milliy me'morchilik qadimidan yuksak darajada taraqqiy etganidan dalolat beradi.

Ming yillik tarixga ega ushbu kent Shirvonshohlar davlati poytaxti hisoblangan, shuningdek, Yaqin Sharqning eng qadimiy va madaniy markazi ham. Bu yerda 20 ga yaqin mehmonxonalar, 100 dan oshiq savdo rastalari faoliyat yuritadi, shuningdek, 1 mingdan ziyod oilalar istiqomat qiladi. Maydoni 22 gektardan iborat Ichkari shahar hududida yuzlab tarixiy yodgorliklar mavjud.

Ichkari shaharning eng diqqatga

sazovor joylarini aylanan ekanimiz, haqiqatan ham, tarixan yaqinligimizni his qildik. Bu tuyg'u bizni Qiz qal'asi, Shirvonshohlar saroyi majmuasi, Muhammad ibn Abu Bakr masjidi, Arxeologik park, "Buxoro" karvonsaroyini kezmanimizda ham tark etmadi. Va amin bo'ldikki, ozarbayjon xalqi tabiatidagi mehr-oqibat va mehmondo'stlik, shonli tarix va ma'naviyat sarchashmasi samarasida yaratilgan nodir osoriyatqalar, undagi murakkab va nafis naqshlar uyg'unligi sayyohlar, xorijiy mehmonlarning hayrat va havasiga sabab bo'lmoqda.

Keyingi manzilimiz – Hazar dengizi... O'lis-olis kengliklarga uzangan, ko'z yetmas dengiz hayratimizni oshirdi. Dimog'imizga sho'r ta'm va ajib hid, yuzimizga dengizning qaysar shamoli urildi, bu hol ayniqsa tarovat, farah bag'ishladi ko'nglimizga. Sohilda sayr qilayotgan yoshlarga, sayohatga kelgan mehmonlarga, mahalliy aholi vakillariga ko'zimiz tushdi.

Sohil bo'ylab biroq vaqt aylandik. Ertaga sahar turishimiz kerakligini yoddan chiqarmagan holda mehmonxonaga qaytish taraddudiga tushdik. Shu payt yuz-ko'zida o'zgacha samimiyat zohir jutilik qayerdan kelganini bilan qiziqdi.

O'zbekistonlik ekanimizni bilishgach birvarakayiga "vah, O'zbekiston, Diyora Keldiyorova – chempion, Lazizbek Mullojonov – chempion!" deya birma-bir sanab ketishdi. O'zbekiston yoshlari yuksak marralarni zabt etayotganidan, yurtimiz nomini butun dunyoga yoyayotganidan faxr tuydik.

Do'stligimizni ko'z qorachig'iday asrash – har birimizning vazifamiz

Safarimizning keyingi kuni tong chog'i Ozarbayjon Respublikasining Qorabog' iqtisodiy zonasiga borish uchun yo'lga tushdik.

Ikkinchi manzilimiz – Agdam (Oqtom) shahri. Osmonda quyosh charaqlab tursada, kechagi yomg'ir sababmi, salqin shamol esyapti. Tabiatning go'zalligidan hayratlanib borarkanmiz, hamrohimiz – Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi departamenti rahbari Rasim Karimli yo'l-yolakay qishloqlarning tarixini

hikoya qildi. Uning so'zlariga ko'ra bu yerlarda qadimiy manzillar, obidalar juda ko'p. Ammo o'ttiz yildan ziyodroq istilo bu hududlarning vayron bo'lishiga olib kelgan.

Darhaqiqat, Oqtom shahriga kelguncha urush asoratlariga ko'zimiz tushdi. Vayronaga aylangan aholi punktlari huvillab yotibdi. Egasiz qolgan bog'-rog'lar qarovsiz tashlab qo'yilgan.

Bir vaqtlar jahonning buyuk allomalariga beshik bo'lgan Fuzuliy tumanida ham aholi siyrak. Uylarning to'rt devoridan iborat vayronalar, o'z holicha o'sib yotgan uzumzorlar, uzoq vaqt parvarish ko'rmagan mevali daraxtlarning mung'aygan tanalari urush ofatidan so'zlaydi...

Bu dahshat izlarini kuzatib, tinchlik qanchalar buyuk ne'mat ekaniga yana bir bor amin bo'ldik.

O'zbekiston biz uchun qadrdon, qardosh yurt, – deydi biz bilan suhbatda Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining Agdam, Fuzuliy va Xodjavenid tumanlaridagi maxsus vakilligi xodimi Azer Yarisev. – Do'stligimizni ko'z qorachig'iday asrash har birimizning maqsadimizdir. Bugun birodarlik rishtalari, hamkorligimiz kengayib borayotir, xalqlarimiz ham, mamlakatlarimiz ham bir-biriga yelka tutib, yaxshi-yomon kunda bir-birini qo'llab kelmog'ida. Buni Fuzuliy shahri bilan o'chog'iga aylangan Mirzo Ulug'bek nomidagi maktab misolida ham ko'rish mumkin.

Darvoqe, Fuzuliy shahri markazida bunyod etilgan Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-umumta'lim maktabida bo'lganimiz safar dafthanimizga alohida sahifa o'laroq yozildi. Aslida ham ushbu maktabni Fuzuliy shahriga qo'r bag'ishlab turgan ta'lim saroyi, desak, mubolag'a emas. Mamlakatimizning bu birodarlik sovg'asini ko'rgan har qanday ko'z quvaydi, qalbga noqadon shodlik to'ladi. Bu haqda maktab direktori Hajar Mahmudova shunday deydi: – 2021-yilning 31-mart kuni bo'lib o'tgan Turkiy kengashning norasmiy sammitida O'zbekiston Prezidenti Qorabog' zaminidagi yodgorliklar, madaniyat va ma'rifat maskanlarini qayta tiklashga o'z hissasini qo'shishga har ekanini ta'kidlagandi. Buni butun Ozarbayjon xalqi mamnuniyat bilan kutib olgan, qalblarimiz to'q'inglangandi.

Shahrimizda 960 nafar o'quvchini o'z bag'riga oluvchi zamonaviy maktab qurilishi qardosh millat Yurtboshisi tashabbusining amaliy ifodasi bo'ldi. Yaqinda O'zbekiston tomoni kutubxonamizga 1500 ta turli nomdagi kitoblar jamlamasini sovg'a qildi. Bu, o'z navbatida, o'sib kelayotgan o'g'il...

...Qorabog' safari yakuniga yetib, yana o'sha tekis va ravon yo'l – Zafar (Galaba) yo'l orqali Bokuga qaytarkanmiz, ko'nglimizdan bir niyat kechdi: erkin, mustaqil va farovon kelajakni qurish, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallash yo'lidani dadil odimlayotgan Ozarbayjonning zafar yo'l'i hamisha bardavom, bu zaminda tinchlik, osoyishtalik abadiy barqaror bo'ladi... Mushtarak ildizlardan yagona maqsadlar sari yo'l olgan ikki qardosh o'lka – O'zbekiston va Ozarbayjon do'stligi esa bundan keyin ham davom etadi, yangi shakl hamda mazmun bilan boyib, yanada mustahkamlanib boraveradi...

qizlarimizni O'zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga, buyuk ajdodlarimiz merosiga oshno etishga xizmat qilishi, shubhasiz. Bilasizmi, O'zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlarining maktabimiz ochilish marosimida ishtirok etishi katta bayramga aylanib ketdi.

Unda Prezident Ilhom Aliyev "Bu Qorabog'ni tiklashda xorijiy davlatning ilk sovg'asi va biz bu birodarlik, hamjihatlik va qo'llab-quvvatlash ishorasini yuksak qadrlaymiz", deya alohida ta'kidladi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev maktabimizni "Samimiy do'stligimiz kelajagi yodgorligi", deya atadi...

Darhaqiqat, ko'p asrik sinovdan o'tgan an'anaga muvofiq bu maktab nafaqat ta'lim maskani, balki do'stlik va birodarligimizning yana bir markazi bo'lishi muqarrar. Isonamizki, kelajakda bu yerdan olimlar, shoiru yozuvchilar – xalqlarimiz ertasi, do'stligi uchun siddiqdolan xizmat qiluvchi iste'dodlar yetishib chiqadi.

O'zbekiston Prezidenti buning uchun Fuzuliyda poydevor yaratgani ayni haqiqat.

Shusha –

Qorabog' durdonasi

...Atrofqa qorog'i tusha boshlaganda purviqor tog'lar uzra yangi qurilgan yo'l bo'ylab Qorabog'ning yuragi bo'lmish Shusha shahriga chiqib bordik. Qorabog' tog'lari etagida joylashgan Shusha betakror tabiiat bilan har qanday odamni o'ziga maftun etadi. Bu yerdagi qadimiy manzillar, tog' yonbag'ri, adirlar archazorlar, yovvoyi mevali daraxtlar, butalar bilan qoplangan.

Buyuk tarixga ega Shusha shahri ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay joy. O'z davrida hunarmandchilik, amaliy san'at, me'morchilik, ilm-fan rivojlangan. Ayni chog'da ko'plab me'moriy durdonalar saqlanib qolgan.

Shahar Qorabog'ning baland nuqtasida – dengiz sathidan 1368 metr balandlikda joylashgan bo'lib, nainki o'q'laning, balki turkiy dunyoning madaniyat poytaxti sifatida qadrlanadi.

Shusha – Ozarbayjon xalqining jasorati, matonati, mardlik va birdamligini yaqqol namoyon etgan tarixiy g'alabaning yorqin timsolidir. Barchamizga yaxshi ayonki, saikam 40 yillik istilodan keyin ushbu shahar Ozarbayjonga qaytarildi.

Hozirgi kunda bu yerda qurilish-bunyodkorlik ishlari jadal olib borilayotir. Shaharda elektr, gaz, ichimlik suvi tarmoqlari yangilanmoqda, ijtimoiy obyektlar ta'mirlanayapti. Qisqacha aytganda, hayot asta-sekin izga qaytmoqda, aholi o'z yashash hududiga ko'chib kela boshladi.

Behzod NORBOYEV ("Xalq so'zi"), Toshkent – Boku – Qorabog' – Toshkent

MUSTAQAILLIK – BU ERKINLIK

Bu haqdagi ilk qarashlarimizni "Milliy tiklanish" gazetasida bosilgan "Mustaqillik demokratiyasi" sarlavhali maqolamizda bayon etganimizga ham ikki yili kam o'ttiz yil bo'libdi...

O'shandan keyingi juda murakkab, ba'zan tushunib bolamias pallalarda mustaqillikning mustamlakachilikdan farqi va afzalliklari borasida shubhali o'ylarga ham borganimizni yashirib o'tirmaymiz. Millat o'laroq boshqa kimgadir butunlay qaramilardan qutulish, davlat mustaqilligini tiklash bir ish, jamiyat – yurtdoshlar mustaqilligi boshqa bir ish ekan haqidagi "vahimial" xulosalarimiz ham o'sha paytlarda tug'ila boshlagani rost!

Demak, davlatchilik o'z yo'lga, ammo milliyatlik omili ham o'ta muhim va zarur ekan! Boshqacha aytganda, garchi har qanday sharoitda davlatchilikni yoqlasak-da, biroq uning negizi bo'lmish inson – millatni yuzaga chiqarmay turib, davlatni mustahkamlab ham, taraqqiy ettirib ham bo'lmas ekan. Uch ming yillik milliy davlatchilik rivojimizdagi eng hal qiluvchi bosqichlardan bir sanalmish Yangi O'zbekiston ushbu haqiqatning boqiyiligi va samaraliligini isbotladi-qo'yd!

Hech bir shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nomi va xizmatlari bilan bog'langan va bog'lanadigan Yangi O'zbekiston nimadan boshlanganini eslash, eslatish ham farz, ham qarz.

Erkinlik, umummilliy erkinlikdan! O'sha kezlari ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan o'ta tang bo'lgani endilikda bir yomon tushga aylanib ulgurdi. Siyosiy vaziyat, ayniqsa, mintaqamizdagi taranglik darajasini ham hozirda birov yo xotirlaydi, yo yo'q. Ammo o'zbekning necha-necha avlodi tashna bo'lgan omil – erkinlik bugun biz baralla aytayotgan yangilanishlar, o'zgarishlar davrini ochib berganini hech kim inkor etolmaydi. Agar kelib chiqishi arabcha bo'lmish "mustaqillik" so'zi o'z erki bilan ish ko'rishni bildirishi-yu, "o'zbek"ning ma'nisi ham aslida shundayligidan kelib chiqilsa, 2016-yil kunda jamiyatimizga in'om etilgan bebaho kuch va boylikning ahamiyati yanada oydinlashishi muqarrar.

Demak, inson erkiga qurilgan davlatchilikka o'z vazifasini to'laqonli va oqilona bajara olishi mumkin ekan! Negaki, insonning ilk va borliq huquqi uning erkidir! O'tgan sakkiz yillik o'ta qisqa vaqt ichida milliy yetakchimiz boshchiligidagi erishilgan va erishilayotgan chindan ham, tarixiy yutuqlarimiz – 3000-yillik davlatchilik rivojimizda ilk bor demokratiya bosqichiga o'tilgani, bozor iqtisodiyoti tiklangani, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarida adolat o'rnatilgani, majburiy mehnat – paxta qulligidan qutulganini, so'z erkinligiga erishilgani, musulmonchilikni saqlab qolganini, tarixiy Turon – Markaziy Osiyo, Turkiy dunyo birligi ta'minlagani, xalqaro maydonda yo'qotilgan o'rnimiz qaytib olinayotgani – barcha-barchasining buloqoboshisi aynan shu tengsiz omil bilan bog'liqligiga qattiq ishonamiz! Ha, mustaqillik erkinlikdir!

Azamat ZIYO, akademik, Oliy Majlis Senati a'zosi, FA Tarix instituti direktori.

YO'L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI OLISH – DOLZARB MASALA



Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Q. Burhonov 2024-yilning iyul oyida IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimiga yangi tayinlangan Sherzod Ibragimov hamda soha mas'ullari bilan uchrashib, tizimda amalga oshirilayotgan ishlar, yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni

Uchrashuv

Muloqot davomida joriy yilning 6 oyida respublikadagi umumiy yo'l-transport hodisalari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,6 foiz, o'lim bilan bog'liq hodisalar 1,1 foiz, tan jarohati olganlik holatlari 9,2 foiz kamayishiga erishilgani, biroq yo'l-transport hodisalari va ular oqibatida hayotdan ko'z yumayotganlar soni hanuzgacha yuqorilgicha qolayotgani afsus bilan qayd etildi.

Senator o'tgan olti oy davomida mamlakat bo'yicha qonuniy ravishda o'qib, haydovchilik guvohnomasiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan 10 mln. 200 mingdan ortiq qoidabuzarliklar sodir etilganini alohida ta'kidlab, xizmatning yangi tayinlangan rahbari oldida nechog'li dolzarb masala turganini yana bir bor eslatib o'tdi.

Achinarlisi, o'tgan yilda transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum etilgan ba'zi shaxslar ruxsatnomasi bo'lmay

turib yana qaytadan rulgaga o'tirgan. Natijada ular tomonidan 707 ta yo'l-transport hodisasi sodir etilgan va oqibatida 212 nafar shaxs esa turli darajadagi tan jarohati olgan.

Buni raqamlar misolida tahlil qiladigan bo'lsak, haydovchilik huquqidan mahrum bo'lganlar umumiy haydovchilarning 0,3 foizini tashkil etadi. Ammo ular tomonidan sodir qilingan yo'l-transport hodisalari jami yuz bergan avariyaalarining 11 foizini tashkil etgan.

Bu kabi qonunbuzarlar kasriga, yuqorida aytganimizdek, yaxshi niyat bilan yo'lga chiqqan yurtdoshlarimiz qolayotgani, qanchadan-qancha oilalarning hayotiga judolilik va musibatlar tushayotganini tasavvur qilishning o'zi og'riqli. Ana shunday nomaqbul kimsalarning xatti-harakati xalqimizning qahr-g'azabini, turli noroziliklarni keltirib chiqarmoqda.

Qo'mita raisi ushbu holatlarning oldini olishga alohida e'tibor qaratish zarur ekanini qayd etib, o'z takliflarini bildirdi.

Bunda amaldagi qonunchilikka o'zgartirish kiritish orqali jazo choralarini kuchaytirish lozimligi maqsadga muvofiqlik alohida ta'kidlandi.

Bundan tashqari, uchrashuvda keyingi yillarda aholi va transport sonining ortishi oqibatida piyodalar ishtirokidagi hodisalar bugungi kunning eng dolzarb masalasiga aylanganiga ham to'xtalib o'tildi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida piyodalar aybi bilan yuz berayotgan YTHga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'si o'sib borayotgan bir paytda joriy 6 oy davomida qonun ustuvorligini ta'minlash orqada qolayotir. Buni YTHning 58,5 foizi piyodalar ishtirokida sodir etilganida ham ko'rishimiz mumkin.

Xo'sh, piyodalar bilan bog'liq YTH qanday sabablarga ko'ra yuz bermoqda? Bu savolga javob o'laroq senator YTH vaqtida tahlil qilinmayotgani, aholi gajvum joylarda, ayniqsa, bozorlarda piyodalar o'tish joyida svetoforlar qo'yilmayotgani, hokimliklar, mahalliy Kengashlar zarur choralar ko'rmayotgani, ayni chog'da, aholining yo'l harakati qoidalarini qo'pol ravishda buzishi oqibatida yuz berayotganini ta'kidladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, piyodalar ishtirokidagi hodisalarining 20 foizi piyodalar o'tish joylari tashkil etilmaganligi oqibatida, 19 foizi esa bunday joylar mavjud bo'lsa-da, piyodalar tomonidan ong'li ravishda yo'l harakati qoidalariga bo'ysunmasdan belgilanmagan joydan kesib o'tishi oqibatida sodir bo'lgan. Shuningdek, piyodalar ishtirokidagi hodisalarining 13 foizi haydovchilarning

tartibga solingan piyodalar o'tish joyida svetoforning taqilovchisi ishorasiga qaramay harakatlanishi, 16 foizi tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyida haydovchilarning piyodalarga yo'l bermasligi oqibatida kelib chiqqan.

Bu borada senator haydovchilarning tartibga solingan piyodalar o'tish joyida svetoforning taqilovchisi ishorasiga bo'ysunmay harakatlanishini hamda mast holatda avtomashina boshqaruviga o'tirishini eng og'ir va jazo muqarrar xatti-harakatlardan bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Bunga YHXning yangi rahbari alohida e'tibor qaratishi yuzasidan takliflar bildirildi.

Piyodalar tomonidan ham yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya etish birdek zarurligi, ularning bu qoidalarga amal qilishini ta'minlash, mast holatda avtomobil boshqaruviga o'tirish og'ir salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi yuzasidan haydovchisi va piyodalarni xabardor etish, bu bo'yicha faol targ'ibot tadbirlari olib borish va mazkur jarayonlarga ziyolilar, mahalliy Kengash deputatlari, hokimliklarni jalb qilish zarurligi aytib o'tildi.

Muhokama davomida mavjud muammoli holatlarning oldini olish maqsadida Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi hamda Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmati hamkorligida takliflar ishlab chiqilgani ham aytib o'tildi. Birinchidan, amaldagi qonunchilikka haydovchilik huquqidan mahrum bo'lgan, biroq yana yo'l-transport hodisasini sodir etgan shaxslarning mas'uliyatini va

javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar kiritish masalasini ko'rib chiqish;

ikkinchidan, bolalar ishtirokida sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida umumta'lim maktablarida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 30-avgustdagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Yo'l harakati xavfsizligi" (Hayotiy faoliyat xavfsizligi) fanini majburiy joriy etish;

uchinchidan, mahalliy hokimliklar tomonidan istirohat bog'larini hududlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bo'yicha barcha sharoit yaratilgan maydonchalarni barpo etish, bunda bolalarga yo'l harakati xavfsizligi asoslarini amaliy hamda ko'rgazmali tarzda o'rgatishni yo'lga qo'yish;

to'rtinchidan, umumta'lim maktablarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatishga hududlardagi Mudofaa qo'maklashuvchisi "Vatanparvar" tashkiloti, "Avtomotohavaskorlar" ko'ngilli jamiyati, "Transkasb" korxonalar uyushmasi avtomatlab o'qituvchilarni jalb etish orqali o'qitish va pedagogika universitetlarida yo'l harakati qoidalarini o'rgatish bo'yicha pedagog kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish;

beshinchidan, xalqaro avtomobil yo'llari yoqasida joylashgan 214 ta va davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llari yoqasida joylashlgan 1064 ta maktab oldida qoidabuzarliklarni aniqlovchi foto-video qurilmalari o'rnatish;

oltinchidan, piyodalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida yangi qurilayotgan va

loyihalashtirilayotgan avtomobil yo'llarida harakat qatnov qismida kesib o'tuvchi piyodalar o'tish joylari tashkil etishga yo'l qo'ymaslik, mazkur obyektlarni yo'l o'tkazgich, yer osti yoki yer usti piyodalar o'tish joyi shaklida tashkil etish; yettinchidan, harakat tig'iz bo'lgan bozorlar, savdo yarmarkalari, istirohat bog'larini atrofida hamda piyodalar o'tish joylarida qoidabuzarliklarni aniqlovchi foto-video qurilmalarini o'rnatish va amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritish;

sakkizinchidan, "Open Budget" dasturi asosida avtomobil yo'llari va ko'chalarni rekonstruksiya qilish hamda ta'mirlash loyihalarini "Yo'l harakati to'g'risida"gi Qonun talablari asosida Davlat yo'l harakati xavfsizligi xizmati bilan majburiy tartibda kelishish, kelishilmagan loyihalar asosida amalga oshirilayotgan ta'mirlash ishlarini qonun talablari asosida o'txatish;

to'qqizinchidan, mavjud amaliyot hamda xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilgan holda mamlakatimizda haydovchilik madaniyatini shakllantirish, haydovchi va piyodalarda o'zi hamda atrofodagilarning xavfsizligi uchun mas'uliyat hissini kuchaytirishga qaratilgan yagona konsepsiyani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Muloqotda yo'l-transport hodisalarini kamaytirishga qaratilgan targ'ibot ishlarini kutilgan natijalarni bermayotgani inobatga olinib, butun targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish bo'yicha tegishli ishlarni hamkorlikda amalga oshirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

BM'Tning Munosib turarjoy masalalari bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) bilan uchrashdi.

SOHA HIMOYASI YO'RIDAGI MUHIM HUJJAT

Keyingi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o'sdi. O'tgan yil yakuni bo'yicha bu o'sish 6 foizni tashkil qildi. Tadbirkorlik subyektlarining soni ikki karra ko'paydi, sanoatdagi o'sish sur'atlari 40 foizdan oshdi, qisqa muddatda kambag'allikni qisqartirishga erishildi.

Mushohada

Ayniqsa, kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishlabarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlar, shuningdek, sohaga berilayotgan katta e'tibor natijasida 2019 - 2024-yillarning yanvar - iyul oylari davomida jami 290,6 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan ochildi.

Dunyoda davom etayotgan murakkab iqtisodiy inqiroz oqibatlarini, notinchlik va ziddiyatlar fonida yurtimizda oziq-ovqat hamda energetika xavfsizligi ta'minlanishi, iqtisodiyotimizda ijobiy o'zgarishlar yuz berayotgani, avvalo, Prezidentimiz tashabbuslari asosida barcha sohada olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar samarasidir.

Hech bir rivojlanayotgan mamlakat tajribasida uchramaydigan voqe'lik - Prezidentimiz tomonidan har yili tadbirkorlar bilan o'tkaziladigan ochiq muloqot va unda bildiriladigan takliflar



tadbirkorlikka yanada keng sharoit va yengilliklar yaratayotgani ayni haqiqat.

20-avgust - Tadbirkorlar kuni yurtimizda keng nishonlanib, Prezidentimiz Qoraqalpog'istonda soha vakillari bilan ochiq muloqot qilgani ham yurtimiz ishlabarmonlariga yuksak ishonch ifodasidir.

Bugungi kunda qonunchilimizda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar mavjud. Biroq ularning nihoyatda ko'pligi amalda qo'llash bilan bog'liq qiyinchiliklarni keltirib chiqarar, tadbirkorlik subyektlarining asosiy e'tirozlariga

sabab bo'layotgandi. Shu bois biznes vakillari manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda zamonaviy tendensiyalardan keng foydalangan holda mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish, yangi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan to'liq tartibga solish lozimligi bugunimizning dolzarb talabiga aylangan.

Shu bois Oliy Majlis Senatining 55-yalpi majlisida Tadbirkorlik kodeksi senatorlar tomonidan bir ovozdan ma'qullandi. Unda 100 dan ortiq qonunchilik hujjatlari, jumladan, 9 ta qonun unifikatsiya etilmoqda. Xususan, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning yagona yaxlit va tizimli yondashuvi joriy etilmoqda. "Kichik", "o'rta" va "yirik" biznes mezonlari orqali tadbirkorlik subyektlari toifalarga ajratilmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini erkinligi va kafolatlarini ta'minlash maqsadida qonunchilik, tadbirkorlik erkinligi, subyektlar tengligi, halol raqobat, vijdonlilik prezumpsiyasi, korruptsiyadan xoli bo'lish kabi asosiy prinsiplar ham kodeksda mustahkamlanmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvlarni kamaytirish maqsadida 38 ta davlat organining 147 ta nazorat funksiyasi va Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida o'tkaziladigan 20 turdagi tekshiruvlar ro'yxatlari kodeksning

ilovasida qayd qilinyapti. Ro'yxatga kiritilmagan boshqa tekshiruvlar esa Biznes-ombudsman bilan kelishilgan tartibda amalga oshirilishi qat'iy belgilanmoqda.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat subsidiyalarini berish tartibi ham qayd qilinyapti. Bunda subsidiya Prezident qarori bilan joriy etilishi, hukumat tomonidan tartib-taomillari belgilanishi hamda "yagona darcha" prinsipi asosida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ajratilishi nazarda tutilmoqda.

Kodeksda ijtimoiy tadbirkorlik, ijtimoiy korxonalar, aholining ehtiyojmand qatlamlari ro'yxati va ularni, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashning mexanizmlari belgilanmoqda.

Davlat korxonalariga raqobatni cheklovchi to'g'ridan-to'g'ri soliq, bojxona va boshqa turdagi imtiyoz va preferensiyalar berish taqiqlanmoqda.

Kodeksning yana bir muhim jihati, unga yoshlar va ayollar tadbirkorligi yo'nalishlariga oid normalar kiritilmoqda. Xususan, ayollar tadbirkorligining mezonlari belgilanib, agar tadbirkorlik subyekti boshqarishda ayol kishi (ayollar) to'liq javobgar bo'lsa, boshqaruv organlari tarkibining kamida uchdan bir qismini ayollar tashkil etsa va tadbirkorlik subyekti ustav

fondidagi (ustav kapitalidagi) ayol kishining (ayollarning) ulushi e'lik va undan ko'p foizni tashkil qilsa, ushbu subyekt ayollar tadbirkorligi sifatida e'tirof etilishi belgilanmoqda.

Shu kabi mezonlar yoshlar tadbirkorligiga ham yo'naltirilmoqda.

Shuningdek, kodeksda ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid davlat dasturlari qabul qilinishi va u orqali ayollar va yoshlar tadbirkorligiga kafolatlangan kreditlarni berish, ularning davlat xaridlarida kafolatlangan tarzda ishtiroki ta'minlanishi qayd etilmoqda.

Tadbirkorlik kodeksining qabul qilinishi sohadagi munosabatlarni tartibga solib, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo'lishi uchun kafolatlar hamda sharoitlar yaratishga xizmat qiladi. Xususan, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoyalash, shuning barobarida, respublika ijro organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining tadbirkorlik faoliyatini uchun erkin muhit va sharoitlar yaratish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi mas'uliyatini yanada oshirishga hissa qo'shadi.

Qobil TURSUNOV,
Oliy Majlis Senatining Budjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari.

O'ZBEKISTON VA MISR SENATLARI DO'STLIK GURUHLARINING BIRINCHI YIG'ILISHI BO'LIB O'TDI

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Misr Arab Respublikasi Senati o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash maqsadida parlamentlararo do'stlik guruhlarining birinchi videomuloqoti bo'lib o'tdi.

Muloqot

Uchrashuv kun tartibidan O'zbekiston - Misr munosabatlari savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalarida hamda parlamentlararo yo'nalishlarda yanada rivojlanish, hamkorlik ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin oldi.

O'zbekiston va Misr o'rtasida strategik sheriklikka asoslangan munosabatlar ikki mamlakat Prezidentlarining tashriflari hamda muntazam muloqotlari natijasida mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilib borayotgani alohida qayd etildi.

Uchrashuvda tomonlar umumiy tarixiy, madaniy qadriyatlar hamda urf-odatlarining o'xshashligi ikki mamlakat o'zaro aloqalarining asosiy omili bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidladi. Madaniy-gumanitar munosabatlarda ilm-fan, ta'lim, nodir qo'lyozmalarni

ilmiy o'rganish, tibbiyot, turizm, mehmonxona xizmatlari yo'nalishlarida o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish zarurligi muhokama qilindi.

Misr tomoni mamlakatimizda joriy yilda bo'lib o'tadigan muhim siyosiy tadbir - parlament saylovida yanada rivojlanish, hamkorlik ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin oldi.

Muloqot davomida ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi oliy darajadagi kelishuvlarning ijrosini ta'minlash maqsadida tizimli parlament nazoratini o'rnatish borasida kelishuvga erishildi.

Suhbat yakunida navbatdagi parlamentlararo do'stlik guruhini yig'ilishini Toshkent yoki Qohira'da tashkil etish, jumladan, tadbirning sanasi va kun tartibi masalalarini diplomatik kanallar orqali muvofiqlashtirishga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

XAVFSIZ HAMDA BARQAROR ELEKTR TA'MINOTIGA XIZMAT QILADI

Mamlakatimizda energetika sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida sog'lom raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, narx shakllanishining erkin va shaffof mexanizmlariga asoslangan raqobatli bozorga erishish maqsadida huquqiy va tashkiliy asoslar mustahkamlanmoqda.

Fikr



Davlatimuz rahbari tomonidan shu yil 7-avgust kuni imzolangan "Elektr energetikasi to'g'risida" Qonun aynan shu soha rivojiga xizmat qiladi.

Mazkur qonun Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida belgilangan asosiy islohotlarni davom ettirish maqsadida Turkiya, Gruziya, AQSh va Yevropa Ittifoqidagi taraqqiyot topgan davlatlar tajribasini inobatga olgan holda xalqaro moliya institutlari, xususan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki hamda USAID tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakatimizning elektr energetika sohasini islohot etish yo'lidagi muhim qadamdir.

Qonunda mamlakatimizning energetika xavfsizligini mustahkamlash, iste'molchilarning narxlar, ishonchli va sifatli elektr ta'minoti bo'yicha manfaatlarini himoya qilish, samarali, shaffof va raqobatli elektr energiya bozorini rivojlantirish hamda tartibga solish, xususan sarmoyalarni jalb etish bo'yicha umumiy qoidalar belgilandi.

Qonunning yana bir muhim qoidalaridan biri elektr energetika sektoridagi monopoliyaning bekor qilinishidir. Ayni vaqtgacha elektr energetika bozori monopoli bo'lib, bu yangi ishtirokchilarni va innovatsiyalar imkoniyatlarini cheklab qo'ygan edi. Endi esa yangi yinchilarni uchun imkoniyat ochiladi. Bu raqobatni rivojlantirish va xizmat sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Qonunda elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish, taqsimlash, saqlash, iste'molchilarni ta'minlash, markaziy xarid funksiyalarini

bajarish, elektr energiyasi savdosi Energetika bozori regulatori tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshirilishi mustahkamlab qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, ushbu faoliyat turlarini amalga oshirish sifati doimiy nazorat qilinishiga asos bo'ladi.

Hujjatda elektr energiyasi bozori har bir ishtirokchisining maqomi, huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi hamda ular o'rtasida adolatlari va ochiq raqobatni ta'minlaydigan mexanizmlar ham aniq belgilangan. Bu infratuzilma va bozor ma'lumotlariga teng kirish sharoitlarini, shuningdek, shartnomalar tuzish va narxlarini tartibga solishning shaffof protseduralarini o'z ichiga oladi.

Qonunga ko'ra, bozor va uning ishtirokchilari faoliyati, narxlar mexanizmlari, tariflarni qo'llash va elektr energiyasi bozorida o'zgarishlar dinamikasini o'z ichiga olgan yillik hisobot Energetika bozori regulatori tomonidan e'lon qilib boriladi.

Qayd etish joizki, mazkur qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj iste'molchilarni qo'llab-quvvatlashga oid normalar ham kiritilgan. Bu iste'molchilar uchun qulay to'lov shartlarini joriy qilish, oldindan to'lov hisoblagichlarini o'rnatish, ta'minoti vaqtincha to'xtatib turishdan ozod etish va ko'rsatiladigan to'g'ridan-to'g'ri boshqa ijtimoiy yoki moddiy yordam ko'rsatish kabi choralar belgilanishini nazarda tutildi.

Sirasini aytganda, ushbu qonun tariflarni shakllantirish uchun qat'iy qoidalarini joriy qiladi. Bu esa haqiqiy ishlab chiqarish va uzatish xarajatlarini hisobga olish, shuningdek, yetkazib beruvchilar uchun adolatlari foyda ko'rishini ta'minlaydi.

Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi farovonligini yuksaltirish, eng muhimi, ishonchli, xavfsiz hamda barqaror elektr ta'minoti tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Nosirjon AMINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi mehnat faxriysi, taniqli huquqshunos
Mashhura SAFAYEVANING vafoti munosabati bilan marhamatning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.

YANGI IMKONIYAT, QULAYLIK VA RAG'BATLAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari va ishlabarmonlari bilan ochiq muloqoti oxirgi yillarda ushbu sohada tizimli muammolarni hal etish, takliflar muhokama qilinishi va yangi qulayliklar

yaratishi bilan biznes vakillari kutadigan muhim voqe'likka aylandi.

Mamlakatimiz rahbarining biznes vakillari bilan o'tadigan uchrashuvi shunchaki muloqotga asoslanmaydi, balki sohada muammolar o'rtaga tashlanib, aniq yechimlar beriladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiya rahbarlari hamda a'zolarining ushbu tarixiy muloqotda ilgari surilgan tashabbuslar hamda Prezidentimiz nutqining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlari bilan

Munosabat

Taraqqiyot lokomotivi

Aktam HAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari:



- Nukus shahrida bo'lib o'tgan navbatdagi uchrashuv oldingilari kabi sermahsul, elektoratimiz manfaatlarini himoya qiladigan taklif va tavsiyalarga boy bo'ldi.

Masalan, shu paytgacha tadbirkorlik subyektlari elektr va gazni o'rnatilgan limitdan ko'proq iste'mol qilsa, ikki karra qimmat narxda haq to'lashga majbur edi. Ijtimoiy tarmoqlarda, Prezident bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish jarayonlari hamda partiyamizning tadbirkorlar bilan o'tkazgan uchrashuvlarida bu muammo eng ko'p ko'tarilgan masalalardan biri bo'ldi.

Nihoyat, davlatimiz rahbari uchrashuvda bu tartibning bekor qilinishini urg'uladi. Endi elektr va gaz iste'moli limiti 20 foizga oshib ketsa ham bazaviy tarif saqlanib qoladi. Iste'mol 20 foizdan oshib ketsa, bazaviy tarifga qo'shimcha 20 foiz ko'proq pul to'lanadi.

Ochiq muloqot davomida aytilgan yana bir fikrga o'txalsam. Davlatimiz rahbari "tekshirsa - qo'rqadi, qo'rqasa - soliq to'laydi", degan qarash bilan ish yurmasligini hamma, ayniqsa, soliqchilarni yaxshi tushunib yetishini ta'kidladi. Haqiqatan ham, shunday. Oxirgi 7 yillikda mamlakatimizda tadbirkorlik chin ma'nodagi umummilliy harakatga aylandi. Tadbirkorlar muammolariga yechim izlash katta-kichik darajadagi rahbarlarning kundalik vazifasi bo'lib qoldi. Mansabdorlar tadbirkor bilan muloqot qilishga o'rgatildi.

Ushbu tarixiy uchrashuvda o'tgan bir yil davomida qilingan ishlar bilan birga, bugungi kunda sohada yechimini kutayotgan ko'plab masalalar yig'ilib qolgan ro'yirost aytiladi. Masalan, kredit vaqtida qaytmasa, garovga qo'yilgan mulk shartnoma tuzilgan paytdagi qiymatida sotuvga chiqarilishi, 3-4 yil oldin kredit olinganda 100 mln. so'mga baholangan mulkning bugungi narxi 30 - 40 foiz qimmatlashsa, uni qanday qilib eski qiymatida sotish mumkinligi ta'kidlandi.

Mamlakatimiz rahbari ushbu masalaga to'xtalar ekan, muammoli kredit bilan qattiq shug'ullanish kerakligi, lekin bu tadbirkorni "tugatish" hisobidan bo'lmastligi zarurligini qayd etdi. Endilikda qaravodagi mulkni savdoga chiqarishdan oldin uning hozirgi bozor qiymati aniqlanadigan, qaytmagan qarzdorlik garov qiymatining 15 foizdan kam bo'lsa undiruv mulkka qaralmaydigan tizim yaratilishi va bank mijoziga qarzni boshqa manba hisobidan qoplashga imkon berishi, shubhasiz, biznes vakillari o'z faoliyatini yanada kengaytirib, yangi-yangi ish o'rinlari yaratish, eksport ko'lamini kengaytirish uchun zamin hozirlaydi.

Biznes uchun qulay maskanga aylanmoqda

Zuhra IBRAGIMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, "Adolat" SDP fraksiyasi rahbari:



- Qoraqalpog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqotda Prezidentimiz mazkur tarmoq uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish bo'yicha muhim bo'lgan tashabbuslarni ilgari surdi.

Ushbu tashabbuslardan biri, bu kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish orqali qo'llab-quvvatlashdir.

Mamlakatimiz rahbari ushbu tashabbusni ilgari surar ekan, yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorlarga 3,5 trln. so'm mikroreditlar ajratilganiga to'xtalib o'tdi. Ushbu kreditlar evaziga xalqimiz uchun minglab ish o'rinlari yaratilishi va oilalar daromadini oshirishni tasavvur qilish qiyin emas.

Tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda xorijda biznesni yo'lga qo'ygan 40 dan ziyod vatandoshlarimiz ishtirok etib, Qoraqalpog'iston sharoiti bilan tanishmoqda. Shuningdek, har bir tuman kesimida "Qoraqalpog'istonda biznes qiling" dasturining ishlab chiqilishi natijasida bu yerdagi sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlarni rivojlantirish uchun yangi nafas, kamida 10 mlrd. dollarlik investitsiya va 500 ming ish o'rni yaratish imkonini beradi.

Ochiq muloqotda tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yildagiga nisbatan 25 foiz ko'payib, 986 trln. so'mga yetganligi, yillik aylanmasi 10 mlrd. so'mdan 100 mlrd. so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar soni 2 barobar ko'paygani, aylanmasi 100 mlrd. so'mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan oshgani, soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksi mahallabay va mijozbay ishlashni boshlagani natijasida oldin zarar bilan ishlagan 16 mingta korxonalar yarim yilda 6,5 trln. so'm foydaga chiqqanligi e'tirof etildi.

Davlatimiz rahbari bu yilgi ochiq muloqot aynan Qoraqalpog'istonda o'tkazilayotganini izohlar ekan, bunda asosiy turtki bu yerda biznes uchun birorta hududda yo'q 50 dan ortiq imtiyozlar paketi yaratilgani, yer ajratishning soddala tizimi joriy etilgani hamda katta bozorlarga chiqish uchun eng qulay hudud, bu - Qoraqalpog'iston ekanligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Ishonch bilan aytish mumkin, davlat rahbarining tadbirkorlar bilan uchrashuvida ilgari surilgan tashabbuslar sohada olib borilayotgan islohotlarning davomi va yanada keng imkoniyatlar ehsig'i o'chilishiga zamin yaratadi.

Mikromoliya xizmatlari kengaytiriladi

Jahongir ABDURASULOV,
O'zMTDPning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi a'zosi:

- Tadbirkorlar bilan ochiq muloqotning bu galgisi aynan Nukusda o'tkazilgani



hududda yo'q imtiyozlar paketi qilib berilgan. Jumladan, so'nggi besh yilda alohida Farmon va qarorlar bilan 52 turdagi imtiyoz va yengilliklar berildi.

Ikkinchi ustunlik - yer ajratishning soddala tizimi joriy qilingani. Nukus shahrida 1 mln. dollar, qolgan tumanlarda 300 ming dollar investitsiya kiritish sharti bilan Vazirlar Kengashi qarori asosida yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ajratilmoqda.


Uchinchisi, Qoraqalpog'iston - bu yangi O'zbekistonning darvozasi ekan. Chunki katta bozorlarga chiqish uchun eng qulay hudud aynan Qoraqalpog'iston hisoblanadi.

Uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim tashabbuslar ilgari surildi.

Masalan, kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish belgilandi. Bu bejiz emas, albatta. Sababi, o'tgan yilgi kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yangi tizim joriy qilingan edi. Bu borada Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorlarga jami 3,5 trln. so'm mikroreditlar ajratildi.

Muloqotda ushbu tajriba yanada kengaytirilishi, endilikda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda barcha bank va mikromoliya tashkilotlari ishtirok etishi mumkinligi va mikroreditlar miqdori 300 mln. so'mga yetkazilishi aytiladi. Shu bilan birga, mikromoliyaviy banklar ochilib, faktoring xizmatlari yo'lga qo'yiladi.

Bugungi kunda tadbirkorlar uchun mikromoliya xizmatlarini kengaytirish, faktoring va islomiy moliya tamoyillarini banklarda ham tatbiq qilish tadbirkorlik subyektlari rivojlanishi, aholi turmush farovonligi yuksalishiga olib keladi.



chiqishi muqarrar.

Nega deganda, ochiq muloqotda tadbirkorlik sohasidagi yutuq hamda muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda tizimli muammolar jonkuyarlik va yuqori talabchanlik bilan tilga olindi. Xususan,

TADBIRKORLIK — FAROVON HAYOTIMIZ GAROVI

ISHBILARMON BO'LGANIMDAN FAXRLANAMAN

Kuni kecha Prezidentimiz bilan bo'lib o'tgan ochiq muloqotda ishtirok etar ekanman, tadbirkorlik faoliyatimni boshlagan kezar xayolimda jonlandi. O'sha davrlarda, ya'ni 1996-yilda bitta "Qora uy" (o'tov)ni bir qop unga ijaraga olib ish boshlaganman. Bu yerda oddiy sharoit, suv, gaz va elektr energiyasi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Lekin turistlarni o'ziga jalb qiladigan birgina maskan — uchta qal'ani o'zida mujassamlashtirgan "Ayaz-qal'a" majmuasi bor edi.



Bu hududda tabiatning 4 ta mo'jizasi bir joyda mujassam bo'lgan, desam, ishonavering. Bir tomoni qum-sahro, ikkinchi tomoni tog', orqasida katta ko'l, oldida katta qadimiy qal'a joylashgan. Xullas, shu yerda dastlabki o'tovimni qurib, turistlarga xizmat ko'rsatishni boshlaganmiz. Lekin qanchalik shijoat bilan ishlasak-da, faoliyatimizning turizm xizmati sifatida tan olinishi uchun ikki yilcha vaqt o'tgan. Buni biz bilan birga tadbirkorlik faoliyatini boshlaganlar juda yaxshi bilishadi.

Albatta, bugungi kunda davlatimiz rahbarining biznes vakillariga yaratib berayotgan sharoitlardan foydalanishda 20 dan ortiq milliy o'tovlar va 2 ta zamonaviy yurta o'rnatganmiz. Shu bilan birga, yangi rusumdagi avtobus va boshqa jihozlar olishga

erishdik. Sayyohlar bemaol qolib hordiq chiqarishi, tabiatdan bahra olishi uchun imkoniyat hamda sayr qilishlari uchun tuyalar ham bor.

Ochiq muloqotda biz kabi tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizni yanada kengaytirishga ahd qildik. Negaki, bizni Prezident qo'llamoqda. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining "Tadbirkor — elga madadkor, deymiz. Tadbirkor kim madadkor? Tadbirkor degan davlat — Prezident madadkor bo'ladi", degan so'zlarini eshitib shu yurtda yashab, ishbilarmonlar safida ekanimdan behad faxrlanib ketdim.

Dilbar KARIMBERDIYEVA, To'rtko'l tumanidagi "Ayaz yurt" oilaviy turizm korxonasi direktori, "Shuhrat" medali sohibasi.

OCHIQ MULOQOT ORZULARIMGA YO'L OCHDI

Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan an'anaga aylangan ochiq muloqotida soha rivoji uchun foydali bo'lgan bir qancha yangiliklar o'rtaga tashlandi. Uchrashuv avvaldayoq tarmoq vakillarini qo'llab-quvvatlash yuzasidan beshta yo'nalishda tashabbus olg'a surildi. Bu esa soha vakillarini qiynab kelayotgan qator savollarga amaliy javob bo'ldi.



Aslini olganda, bugun yurtimizda qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilgani tizimdagi subyektlarning mahsuloti va mehnat bozorida munosib o'rin topishida katta omil bo'lmoqda. "Biznes yuritaman" degan inson borki, sarmoyasini hech ikkilanmay sarflayapti. Buni xorijiy investorlar misolida ham ko'rish mumkin. Xususan, bizning trikotaj mahsulotlari

ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxonamiz rossiyalik tadbirkor sarmoyasi evaziga tashkil qilingan.

Uch yil avval 1,5 million dollar qiymatidagi loyiha ijrosi bilan mahalliy iqtisodiyotga qo'shilgandik. Dastlabki bosqichda yiliga 5 million dollarlik mahsulot hajmida yaratilgan

quvvatlar barpo etilishi bilan 250 ta ish o'rnini ochildi. Tayyorlayotgan kiyim-kechaklarimiz yuz foiz tashqi bozorga chiqadi. Bu bilan tuman eksport salohiyatini oshirishga, ozmi-ko'pmi hissa qo'shayotganimizdan ko'pchilik mamnun.

Asosiysi, faqat shuning o'zi bilan cheklanib qolganimiz yo'q. Ishlab chiqarishni kengaytirish maqsadida tuman hokimligidan qo'shimcha joy so'ragandik. Markazdan uncha uzoq bo'lmagan Oqto'sh mahallasida barpo etilayotgan "Yoshlar kichik sanoat zonasidan" bir gektar yer ajratib berildi. Unda ikkinchi fabrikamizni ishga tushirdik.

Ochig'i, 3,5 million dollar qiymatidagi ushbu loyihamiz ancha salmoqli. Buni, masalan,

o'tgan yil oxirida ishga tushirilgan qo'shimcha quvvatlar yordamida oyiga 1 million dollarga teng trikotaj mahsulotlari tayyorlash, 700 ga yaqin yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyati vujudga kelgani bilan izohlash mumkin.

Xullas, davlatimiz rahbari bilan ochiq muloqotdan katta taassurot bilan qaytdim. Bu yerda ko'tarilgan va hal etilgan masalalar nafaqat anjumanning bevosita ishtirokchilari, balki O'zbekistonning barcha tadbirkorlarga yaxshigina motivatsiya berishiga shak-shubha yo'q.

Mahfuza GYUMYUSH, To'raqo'rg'on tumanidagi "Runamtex" mas'uliyat cheklangan jamiyat shaklidagi xorijiy korxonasi direktori, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibasi.

JAHON BOZORIDA O'Z BRENDIMIZNI YARATAMIZ

Biz tadbirkorlar uchun 20-avgust sanasi qo'shaloq bayram bo'ldi. Shu kuni davlat rahbari bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda muammo, mulohaza va takliflar tinglandi. Anjumanning yana bir muhim jihati shundaki, unda biz kabi biznes vakillari uchun qator yengilliklar, imtiyozlar berildi. Bu nafaqat ish faoliyatimizni kengaytirish uchun imkoniyat yaratadi, balki o'zimizda ham ishga ishtiyok, kelajakka ishonch tuyg'ulari mustahkamlanadi.



Faoliyatimiz haqida aytadigan bo'lsam, korxonamizda jahon andozalari darajasida tayyor kiyim-kechaklar tikiladi. Qariyb 100 nafar opa-singillarimiz doimiy ish o'rnini bilan ta'minlangan bo'lib, yillik eksport hajmi 6 milliard so'mni tashkil etadi. Hozirda mahsulotlarimiz, asosan, MDH mamlakatlarga eksport qilinmoqda.

Yaqinda korxonamizda jahon bozorida mashhur "JEEP" brendining sport kiyimlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, Italiyaga eksport qilish boshlandi. Maqsadimiz Yevropa bozoriga eksport ko'laminani tobora kengaytirib borish orqali o'z brendimizni yaratishga qaratilgan.

Prezidentimiz ochiq muloqotda bevosita bizning yaqin istiqbolga mo'ljallangan rejalarmizga hamohang fikrlarni bildirgani behad quvonarlidir. Ta'kidlanganidek, yon qo'shnilarimizda yillik importga 90

milliard dollar ehtiyoj bor. Ammo undagi mamlakatimiz tadbirkorlarining ulushi atigi 4 foiz. Demak, raqobat borasida hali ancha ishlashimiz zarur.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Jahon savdo tashkilotiga a'zolik xalqaro tranzit yuklarini tashishda ortiqcha to'lov va cheklolardan xalos qilishni qayd etdi. Buning uchun mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, xalqaro standartlarga o'tish kerakligini ta'kidladi. Bu bizning korxonamiz imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Imtiyozlar faqat biz tadbirkorlar uchungina emas, xalqimiz va davlatimiz uchun ham juda katta foyda keltiradi. Axir tadbirkor boy bo'lsa, yurtda to'kinlik bo'ladi-da!

Zebiniso XAYRULLAYEVA, Farg'ona shahridagi "Tantana tekstil" MChJ rahbari, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibasi.

ISHONCH ZIMMAMIZGA MAS'ULIYAT YUKLAYDI

Keyingi yillarda tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyat, bildirilayotgan ishonch haqida o'ylar ekanman, beixtiyor fermer sifatida ish boshlagan kezarim yodimga tushadi. O'shanda 20 gektar maydonda dehqonchilik qilganmiz. 2018-yilga kelib davlatimiz yaratib bergan imkoniyatlardan oqilona foydalanishimiz natijasida 30 dan ziyod qishloq xo'jaligi texnika vositalariga, yuqori unumli haydov traktorlari hamda o'rim kombaynlariga ega bo'ldik. Ekin maydonlarimiz esa 400 gektarga yetdi.



Bu orada xo'jaligimiz negizida "Buxoro asl elita urug'chilik xo'jaligi"ni tashkil etishga muvaffaq bo'ldik. Bu bizga daromadimizni keskin oshirish imkonini berdi. Chunki sifatli urug'lik chigit va donning bozori hamisha chaqqon. Shu maqsadda rossiyalik hamda xitoylik yetakchi olimlar bilan g'alla va paxta urug'chiligi bo'yicha aloqalarni yo'lga qo'ydik.

Chorvachilikni ham jadal rivojlantiryapmiz. Chunonchi, bundan uch yil muqaddam 3 milliard so'm mablag' evaziga xorijdan naslli qoramollar xarid qildik. Sigirlarni avtomatlashtirilgan holda sog'ish kompleksini tikladik. To'rt gektarga yaqin maydonda suv havzasi barpo etib, baliqchilikni ham yo'lga qo'ydik.

Bular haqida batafsil to'xtalishim bejiz emas. Faoliyatimiz kengayib, ko'p tarmoqli yirik xo'jalikka aylanishida

davlatimiz tomonidan fermerlarga qaratilayotgan e'tibor, soliq imtiyozlari juda katta ahamiyat kasb etdi.

Quvonarlisi, Prezidentimiz tadbirkorlar bilan o'tkazgan ochiq muloqot chog'ida ishbilarmonlikni yanada qo'llab-quvvatlash bundan keyin ham ustuvor vazifa bo'lib qolishini ta'kidladi. Buni biz, tadbirkorlar o'zimizga bildirilgan yuksak ishonch deb bilamiz. El-yurt farovonligi yo'lida mas'uliyat bilan ishlab, xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishi uchun bor kuch-g'ayratimiz, bilim va salohiyatimizni ayamaymiz.

Anvar KENJAYEV, Vobkent tumanidagi "Zahro yulduzi" fermer xo'jaligi boshlig'i, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi.

TASHABBUS KO'RSATIB ISHLAYDIGAN ZAMON KELDI

Nukus shahrida bo'lib o'tgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti, rosti, kutilmagan yangiliklarga boy bo'ldi. Unda davlatimiz rahbari tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslarni ilgari surdi.



Biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning yangi chorolari — mikroredit limitini 300 million so'mgacha oshirish, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha resurslar ajratish, faktoring xizmatlari va islomiy moliya bozorini rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlarni hech birimiz kutmagandik, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Ochig'i, O'zbekistonda tadbirkorlik qilib baraka topadigan zamon keldi. Bu gapni bejiz aytmayapman. Endi bank bo'lmagan yangi institut — faktoring tashkiloti uchun yo'l ochilyapti. Bu imkoniyat ishbilarmonlik muhitini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Faktoring tashkiloti xorijiy valyutada ham xizmat ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Bu jarayonda qatnashadigan bank, mikromoliya, faktoring tashkiloti va tadbirkorlar foydalanadigan alohida elektron platforma ishga tushadi. Ya'ni tadbirkor undan o'ziga qulay moliyaviy mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman, faktoringni ommalashtirish hisobidan tadbirkorlarga aylanma uchun 20 trillion so'm, eksportchi korxonalariga 1 milliard dollar qo'shimcha moliyaviy resurslar paydo bo'lishi — juda katta yutuqlarga erishish uchun yo'l ochadi.

tomonidan bildirilgan fikrlar men kabi yana ko'plab tadbirkorlarni yangi-yangi marralar sari undadi. Endi mahsulotlarimizni jahon bozoriga olib chiqish ustida bosh qotira boshladik. Yaqin kunlarda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tishi kutilayotgan xalqaro ko'rgazmada ishtirok etib, xorij tajribasini o'rganish niyatidamiz.

Ishonamanki, anjumanda kichik va o'rta biznes rivojiga, qolaversa, biz kabi tadbirkorlarga yaratilgan imtiyozlar jahon bozorlariga sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar bilan kirib borish imkonini beradi.

Marhabo YAKUBOVA, Jizzax viloyatining Sharof Rashidov tumanidagi "Jizzax Bek-Star" MChJ rahbari.

YELKAMIZGA OFTOBNING TEKKANLIGI ROST BO'LSIN...

2015-yilda tadbirkorlikni boshlaganimizda ikkilanishlar ko'p bo'lgan. Chunki o'sha yillarda bu sohada ish boshlash oson emas, turli to'siqlar, muammolar ham yetarlicha edi. Ochig'i, qaysi eshikka bormaylik, quruq qo'l bilan qaytardik... "Oynning o'n beshi yorug'..." deganlaridek, oradan bir-ikki yil o'tgach, biznes vakillari yelkasiga oftoab tegdi. Ko'p o'tmay, Prezident bilan ochiq muloqot tashkil etilgani esa biz kabi ishbilarmonlar joniga oro kirdi.



Bu yilgi anjumanda ham mahsulotlarimiz hozircha ichki bozorlarga yetkazib berilmoqda. Quvonarlisi, korxonamiz daromadi yildan-yilga yuksalib, ishchilarimizning manfaatdorligi oshmoqda. O'tgan yilni 3 milliard 126 million so'm sof daromad bilan yakunladik. Bu yil rejalar yanada ulkan. Maqsadni ham, niyatni ham katta qo'yib bormoqdamiz.

Ochiq muloqotda Prezidentimiz

to'rtinchi yildagi nisbatan 25 foiz ko'payib, 986 trillion so'mga yetdi;

- yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar 2 karraga ko'paydi;
- aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan oshdi. Bu o'tgan yildagiga nisbatan 2 baravar ko'p.

YURAGIMIZDA G'URUR, IFTIXOR HISSI JO'SH URMOQDA

Tadbirkorning huquqlari qonun bilan kafolatlanishi va faoliyat davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, biznesi rivoj topadi, ishida unum, baraka bo'ladi. Buni bugun o'z hayotimiz misolida ko'rib turibmiz. Ayniqsa, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida bildirilgan tashabbus va takliflarni diqqat bilan tinglab, bunga yana bir bor amin bo'ldim.



Davlatimiz rahbarining nutqida faoliyatimizga oid juda ko'plab masalalar qamrab olingan. Har bir viloyatda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasining filiali tashkil etilishi, faktoring xizmati ommalashtirilishi, yerdan investitsiya sifatida foydalanish tizimining takomillashtirilishi, elektr va tabiiy gazdan foydalanishda to'lovlar bo'yicha berilgan yengilliklar biz uchun nihoyatda muhim yangilik bo'ldi.

Yoki oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, saralash va qayta ishlab uskunalarini hamda butlovchi qismlari olib kelinganda tegishli sertifikat olish uchun Xorazmda ham sinov laboratoriyasini ochish to'g'risidagi taklif viloyatimiz tadbirkorlari uchun yana bir qulaylik yaratadi.

Umuman, ochiq muloqotda

sohadagi mavjud muammolarni hal qilishga qaratilgan muhim yo'nalishlar belgilab berildi va qator yangi tashabbuslar ilgari surildi.

Ishonamanki, bu o'zgarishlar bizning faoliyatimiz uchun ham dasturilamal bo'ladi. Ya'ni xalq hunarmandchiligi an'analarni rivojlantirish, yoshlarga kasb o'rgatish va doimiy daromad olish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Sirasini aytganda, ochiq muloqotda bildirilgan fikrlar, yaratilayotgan imkoniyatlar bizni yangi loyihalarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga undamoqda. Bunday yuragimizda g'urur, iftixor hissi jo'sh urayotir.

Zamira JUMANIYOZOVA, Qo'shko'pir tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibasi.

Toshkent xalqaro kinofestivali tarixida ilk bor TURKSOYga a'zo mamlakatlar o'rtasida Animatsiya forumi o'tkazilishi rejalashtirilmoqda.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-842. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yubkub olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir T. Eshboev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonasi manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 21.00 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6